

SURXON VOHASI FITONIMLARINING LINGVOPOETIK IMKONIYATLARI.

Umidadonu Tohirovna Jovbo'riyeva
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
Filologiya va san'at fakulteti
231- amaliy filologiya guruhi talabasi
E-mail: ujovboriyeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxon vohasining mashhur shoirlaridan biri Sirojiddin Sayyidning “Qaldirg’ochlarga ber ayvonlaringni” she’riy to‘plamida berilgan fitonimlarning lingvistik, etimologik, leksik-semantik va tarixiy-geografik xususiyatlari tahlil qilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: onomastika, metod, fitonim, o‘simlik nomlari, daraxt nomlar, buta nomlari.

Аннотация: В данной статье анализируются лингвистические, этимологические, лексико-семантические и историко-географические особенности фитонимов, представленных в поэтическом сборнике «Отдайте свои навесы ласточкам» Сироджиддина Сайида, одного из известных поэтов оазиса Сурхан.

Ключевые слова: ономастика, метод, фитоним, названия растений, названия деревьев, названия кустарников.

Annotation: This article analyzes the linguistic, etymological, lexical-semantic, and historical-geographical features of phytonyms given in the poetry collection "Give Your Awnings to the Swallows" by Sirojiddin Sayyid, one of the famous poets of the Surkhan oasis.

Keywords: onomastics, method, phytonym, plant names, tree names, shrub names.

KIRISH VA DOLZARBLIGI.

Onomastika – yunoncha “onomastike” so‘zidan olingan bo‘lib, “nom qo‘yish san’ati” degan ma’noni anglatadi. 1. Tilshunoslikning har qanday atoqli nomlarini, ularning paydo bo‘lish va o‘zgarish tarixini o‘rganuvchi bo‘limi. 2. Muayyan tilda mavjud bo‘lgan barcha atoqli nomlar majmuyi[1.127-128].

Bugungi kunda jahon hamda o‘zbek tilshunosligida yangicha, mustaqil yo‘nalish sifatida tadqiq etilayotgan onomastikaning yana bir ko‘lami bu fitonimlardir.

Fitonim so‘zi (grekcha *phuton* – o‘simlik + *onoma* – atoqli ot) alohida o‘simlik naviga berilgan atoqli ot hisoblanib, fitonimik nomlar fitonimiyada o‘rhaniladi[6.88].

(13th international scientific and practical conference)

Fitonimlar o‘simlikshunoslik, xususan, botanika bilan bog‘lik bo‘lib, uni tilshunoslikda lingvokulturologik jihatdan tadqiq etish xalqimizning tarixi, madaniyati, etimologiyasi kabi qirralarini ochib beradi. Shu bilan birgalikda, fitonimlarni o‘rganish ularning adabiy tilda va xalq og‘zaki ijodida qo‘llanilishining o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlashda keng yordam beradi. Bu esa o‘z o‘zidan til leksikografiyasining boyishida xizmat qiladi.

METODLAR VA O‘RGANISH DARAJASI.

“Muqaddimat ul-adab” ning Buxoro nusxasida keltirilgan fitonimlarni maxsus o‘rgangan A.K.Borovkov so‘zlarni hozirgi o‘zbek adabiy tiliga qiyoslashda N.N.Poppe tadqiqotlaridan keng foydalangan. Shuningdek, O‘zbek tilidagi fitonimlar tadqiqida muhim manba bo‘lishi mumkin bo‘lgan dastlabki ishlardan biri S.S.Sahobiddinov tomonidan e‘lon qilingan “O‘rta Osiyo foydali va zararli o‘simliklarning ilmiy hamda mahalliy nomlari lug‘ati”dir[4.6].

O‘zbek tilshunosligida T.Nu‘monovning Farg‘ona vodiysi o‘zbek shevalari materiallari asosida “O‘zbek tilida polizchilik terminlari” mavzusidagi dissertatsiyasi mavjud. Dissertatsiyada poliz ekinlari bilan bog‘liq 450ta atama tadqiq etilga. Bundan tashqari, M.Saparovning “Turkiy tillarda poliz ekinlari nomlari”, K.Melievning “Turkiy tillarda mevali daraxt nomlari va ular asosida yasalgan leksik birliklar” kabi tadqiqotlarda O‘rta Osiyo va Qozog‘iston hududidagi turkiy tillar so‘z boyligining mevali daraxt va poliz ekinlari nomlari qiyosiy-tarixiy jihatdan yoritilgan[4.6].

Maqolada Surxon vohasi fitonimlarining o‘rganilishi jihatidan ensiklopedok, shuningdek, tasviriy metod orqali daraxt, buta, o‘t nomlari tahlil qilindi.

TADQIQOT NATIJALARI.

Fitonimlarning alohida tadqiq etilishi xalqimiz o‘tmishi, etnografiyasi, turmush tarzi, madaniyati bilan bog‘liq masalalarni oydinlashtirishga yordam beradi. Fitonimlarning lingvopoetik xususiyatlarini o‘rganishda ularni alohida guruhlariga ajratib o‘rganish olimlarimiz tomonidan tavsiya etiladi. Xususan, tilshunos olim, X.A.Narimov o‘zining “Xorazm mintaqaviy fitonimlarining lisoniy tahlili” mavzusida yozilgan dissertatsiyasida fitonimlarni quyidagi mavzuiy-semantik guruhlariga ajratadilar:

1. Sabzavot nomlari.
2. Daraxt nomlari.
3. Buta nomlari.
4. O‘t nomlari[4;16].

Quyida ushbu tasnif asosida Surxon vohasining taniqli shoiri Sirojiddin Sayyid qalamiga mansub “Qaldirg‘ochlarga ber ayvonlaringni” she‘riy to‘plamidagi fitonimlarning lingvopoetik xususiyatlarini o‘rganib chiqamiz.

Falak bizni balolardan asradimi?

Yulduzlardan boychechaklar sachradimi?

(13th international scientific and practical conference)

Bir kurtakka almashdim bor hasratlarimni,
Olam eski, lekin o‘ngi so‘lim yangi[5;21].

She‘riy to‘plamida berilgan ushbu satrlar “Navro‘z qo‘shig‘i” she‘ridan olindi. Ma‘lumki, boychechak bahor elchisi, bahor darakchisidir. Boychechak Piyozdoshlar oilasiga mansub, ilk bahorda ochiladigan ko‘p yillik o‘t, o‘simlik hisoblanadi[1;303]. Bu fitonim o‘t nomlariga kirib, manzarali o‘simliklar qatoridan joy oladi[4;57].

Oylarga ham alishmasman yuzlarini,
Qarang Qo‘qon, qarang Surxon qizlarini.
Zulflariyu rayhonlarning islarini
Olib kelgan epkinlarim, elim yangi[5;21].

Rayhon respublikamiz hududida keng tarqalgan o‘simlik turi hisoblanib, manzarali o‘simlikdir. Ushbu o‘simlikning shevalarda turli variantlarda talaffuz qilinishiga duch kelamiz. Masalan, nazvay, nazbay, nazvaygul va h.k. Xususan, Surxondaryo viloyati hududida “nozvoy” ko‘rinishida aytiladi. Rayhon labguldoshlar oilasiga mansub bo‘lib, bir yillik o‘tlar, manzarali, dorivor va ziravor ekindir[3;52].

Qora qosh ham qora ko‘z
Qancha bola bu yurtda.
Tiriklik chechaklari,
Gul ham lola bu yurtda[5;176].

Navbatdagi she‘riy parchada, lolaguldoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simliklar turkumiga kiruvchi, manzarali ekma gul hisoblangan lola gul keltirilib o‘tilgan[3;175]. Surxon vohasida eng ko‘p uchraydigan gullar sirasiga kiradi.

Gullarini jiydalar
Ko‘zyoshingga chaydilar.
Buncha aziz islari,
Buni hayot deydilar[5;33].

Jiyda jiydadoshlar oilasiga mansub bo‘lib, daraxt yoki buta nomi[3;145]. Manzarali daraxtlar sirasiga kiruvchi ushbu o‘simlik hozirgi turkiy tillarning ko‘pchiligida, o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, turkman tillarida uchraydi. Jiyda so‘zi qadimgi turkiy yodgorliklarda yigde, yigte, jigda, igde kabi shakllarda qayd qilingan[4;35].

Nastarin, isming farangi, Nastarin,
Sen hayotning yangi rangi, Nastarin.
Jilvasiday ikki billur jomning,
Ikki ko‘ngilning jarangi, Nastarin.

Nastarin, forsha so‘z bo‘lib, oq, qizil rangli, xushbo‘y guli bo‘lgan o‘simlik. Buta yoki daraxt ko‘rinishidagi, gullari mayda to‘pgul, xushbo‘y, oq, pushti, qizil rangli manzarali o‘simlik. U xalq orasida Siren nomi bilan ham atalib kelinadi[1.22].

Shoir ijodida fitonimlardan ko‘p hollarda gul nomlari qo‘llanilgan. She‘riyatda gul nomlarining qo‘llanilishi noziklik, poklik, nafislikni ifodalashda asosiy tasvir vositasi o‘laroq xizmat qiladi. Yana bir fitonimlardan biri quyidagi satrlarda keltirilib o‘tilgan:

Atirgulim,
O‘tir, gulim.
Umr o‘tayotir, gulim.
Mening mushkul bir ishim bor,
Bahor ketmay bitir, gulim!

Ushbu she‘riy parcha to‘planning “Bir sanamning soatiga” she‘ridan olingan[5.192].

Atirgul ra‘noguldoshlar turkumining xushmanzara o‘simlik sifatida ekiladigan bir qancha turiga xalq tomonidan qo‘yilgan umumiy nom. Bu turkumning yovvoyi holda o‘sadigan turli xalqda ra‘no, na‘matak, qirq og‘ayni va itburun nomlari bilan ma‘lumdir.

Sen tong deb kutganing shom chiqqandayin,
O‘rgan arpalarining xom chiqqandayin,
Ham tingan yomg‘iru ham chaqindayin,
Rangi sal uniqqan ko‘ylagim, qirq yosh,
Erta nelar deya o‘ylagum, qirq yosh?

Arpadoshlar oilasiga mansub, doni ovqatga va yem sifatida ishlatiladigan bir va ko‘p yillik g‘alla o‘simligi va uning doni, g‘allasi[3.641]. O‘zbek xalqi azaldan mehnatkash va ishbilarmon xalq hisoblanadi. XX asr o‘rtalarida oziq-ovqat tanqisligi kuzatilgan bo‘lsa-da, mehnatining samarasi o‘laroq, bug‘doy va arpa donlaridan oziq-ovqat va non sifatida foydalanishgan. Bu she‘riy parchada o‘zbek xalqining o‘tmish hayoti ushbu jumlar orqali berib o‘tilgan.

XULOSALAR.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, fitonimlarni tadqiq etish, ularning lingvopoetik xususiyatlarini ochib berish orqali tilimizda mavjud o‘simlik nomlarining kelib chiqishi, o‘ziga xos xususiyatlari, xalqimiz tilida avval qanday nomlanishda, asrlar davomida shakllanib, bugungi kunda qanday nomlanishi, adabiy tilda va sheva dialektlarida qanday qo‘llanilishi haqida ma‘lumotlarni ochiqdashda samarali yordam beradi. Fitonimlarni mavzuiy-semantik guruhlariga ajratish orqali, ularda mavjud ba‘zi lisoniy xususiyatlarni aniqlash mumkin bo‘ladi.

(13th international scientific and practical conference)

Adabiyotlar:

1. A.Madvaliyev tahriri ostida. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.–T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008 – 129 b.
2. Begmatov E, Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. – Namangan, 2006 – 103 b.
3. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. –T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2013.
4. X.A.Narimov. “Xorazm mintaqaviy fitonimlarining lisoniy tahlili”. Filologiya fan. nom. diss. - Urganch.: 2020 – 152 b.
5. Sirojiddin Sayyid. Qaldirg‘ochlarga ber ayvonlaringni. – T: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2005 – 207 b.
6. <https://ziyonet.uz/ru>
7. <https://www.wikipedia.org/>

